VOL. 1 | ISSUE 2 | APRIL 2026

UNISCIENCE

INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL



UniScience
International scientific journal

UZUN TUMANI HUDUDIDAGI TABIIY LANDSHAFTLAR VA ULARGA BO‘LAYOTGAN ANTROPOGEN TA’SIR

Abdusalomov Olloberdi Qodirqul og‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti
E-mail: olloberdiabdusalomov55555@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Uzun tumanining o‘ziga xos tabiiy landshaftlari va ularning hozirgi holatiga inson faoliyati (antropogen omil) natijasida yetayotgan ta’sirlar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tumanning tog‘li, adir va tekislik landshaftlarining strukturaviy o‘zgarishlari, ayniqsa, Bobotog‘ va Hisor tizmalari etaklarida chorvachilik, dehqonchilik hamda urbanizatsiya jarayonlarining landshaftlar degradatsiyasiga ta’siri o‘rganilgan. Maqolada tabiiy majmualarning antropogen transformatsiyasi darajasi baholanib, hududning ekologik muvozanatini saqlash va landshaftlardan barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Uzun tumani, tabiiy landshaft, antropogen ta’sir, transformatsiya, degradatsiya, yaylovlar, ekologik muvozanat, landshaft monitoringi, Bobotog‘, barqaror rivojlanish.*

KIRISH

Insoniyat faoliyatining jadallashishi natijasida Yer yuzidagi tabiiy landshaftlarning qiyofasi tubdan o‘zgarib, antropogen landshaftlarning ulushi sezilarli darajada ortmoqda. Bugungi kunda tabiiy va antropogen omillarning o‘zaro ta’sirini o‘rganish, landshaftlarning barqarorligini baholash geografiya fanining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistonning janubiy hududlari, xususan,

Surxondaryo viloyatining Uzun tumani o‘zining murakkab relyefi, boy bioxilma-xilligi va o‘ziga xos iqlimiy sharoitlari bilan ajralib turadi. Biroq, ushbu hududda aholi sonining o‘sishi, qishloq xo‘jaligining kengayishi va yaylovlardan tartibsiz foydalanish tabiiy majmualarning muvozanatiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Uzun tumani hududida Hisor va Bobotog‘ tizmalarining tutashganligi bu yerda landshaftlar differensiasiyasining yuqori bo‘lishini ta’minlagan. Ammo oxirgi o‘n yilliklarda kuzatilayotgan intensiv antropogen bosim — o‘rmonlarni kesish, tog‘ yonbag‘irlarini o‘zlashtirish va chorva mollarining me’yordan ortiq boqilishi — landshaftlar degradatsiyasiga olib kelmoqda. Bu jarayonlar nafaqat tabiiy landshaftlarning tarkibini o‘zgartirmoqda, balki hududda eroziya, sel va ko‘chki kabi xavfli tabiat hodisalarining faollashishiga zamin yaratmoqda.

1.Tuman shimoliy tomondan O‘rta Osiyoning eng yirik tog‘ tizmalaridan biri bo‘lgan Hisor tog‘lari bilan chegaradosh. Bu hudud tumanni sovuq havo oqimlaridan himoya qiladi va asosiy suv manbalarini (daryolarni) shakllantirib beradi.

2. Sharqdan: Bobotog‘ tizmasi

Sharqiy tomondan tuman Tojikiston bilan chegaradosh bo‘lib, bu chegarani Bobotog‘ tizmasi belgilab beradi. Bobotog‘ o‘zining o‘ziga xos ekotizimi va kiyik o‘tlari, pista bog‘lari bilan ajralib turadi.

Bobotog‘ tumanning sharqidagi tog‘ tizmasi bo‘lib, O‘zbekiston va Tojikiston Respublikalari chegarasida, Surxondaryo va Kofirnihon daryolari oralig‘ida shimoli sharqdan Janubi g‘arbga tomon Amudaryo sohiligacha cho‘zilgan. Uzunligi qariyb 125 kilometr, eni 30-40 kilometrni tashkil etadi. Eng baland cho‘qqisi – Zarkosa tog‘i, 2290 metrdan iborat.

3. G‘arbdan: Denov va Sho’rchi tumanlari bilan chegaradosh

Tabiiy geografik jihatdan bu yerdagi chegaralar sho’rchi tumani orqali adirliklardan denov tumani orqali esa surxondaryo qayirlari va terassalari orqali o’tadi.

Uzun tumani shimoli-g‘arbda Sariosiyo tumani (To‘polon daryosi havzasi) bilan chegaradosh. Aslida Uzun va Sariosiyo tumanlari bir xil tabiiy-iqlimiy zonada — Yuqori Surxon botig‘ida joylashgan.

4. Janubdan: Surxon-Sherobod botig‘i (pasttekisligi)

Janubiy va janubi g’arbiy tomondan tuman Qumqo’rg’on tumanning adirlik hududlari bilan tutashgan. Bu yerda bobotog’ tog’ligi asta sekin pasayib borib tog‘ oldi qiyaliklariga aylanib asta-sekin keng Surxon vodiysiga aylanib boradi.

Uzun tumanining tabiiy-geografik chegaralari o‘zining cho‘zilgan shakli va tog‘li relyefi tufayli ancha uzun masofani tashkil etadi.

Tuman chegarasining o‘ziga xosligi:

Uzun tumani nomi ham aynan uning hududi shimoldan janubga qarab juda uzun (tor va cho‘ziq) shaklda joylashganligi bilan bog‘liq. Tumanning shimoliy nuqtasi bilan janubiy nuqtasi orasidagi masofa salkam 100 kilometrni tashkil etadi, kengligi esa ba'zi joylarda juda tor (10-15 km) bo‘lib qoladi.

Uzun tumanining geologik tuzilishi o‘ta murakkab va xilma-xil bo‘lib, bu bevosita uning Hisor tog‘ tizmasi va Surxon-Sherobod botig‘i tutashgan joyda joylashganligi bilan bog‘liq. Tumanning geologik o‘tmishi million yillar davomida okean tubidan baland tog‘largacha bo‘lgan evolyutsion yo‘lni bosib o‘tgan.

Geologik tuzilishni tushunish uchun hududni 3 ta asosiy qismga bo‘lish mumkin:

1. Stratigrafiyasi (Tog‘ jinslarining yoshi va tarkibi)

Uzun tumani hududida deyarli, Mezozoy va kaynozoy eralarining geologik davrlarga oid qatlamlarni uchratish mumkin:

Mezozoy davri jinslari: Bunga yura va bo‘r davri yotqiziqlari kiradi. Sharqiy va shimoliy tog‘ oldi hududlari ,Bobotog’ hududlarida ohaktoshlar, qumtoshlar va gipsli qatlamlar keng tarqalgan.

Kaynozoy davri yotqiziqlari (Eng yosh): Bunga paleogen ,neogen va to’rtlamchi(antropogen) davri jinslari kiradi. Bular asosan loylar, qumtoshlar va konglomeratlardan tashkil topgan bo‘lib, adirliklar va Surxon daryosi vodiysining yuqori qismini qoplaydi shuningdek ,Bobotog’ning sharqiy yonbag’ri etaklarida joylashgan asosan prolyuvial vaqtincha oqar suvlar keltirib yotqizgan kofirnihon vodiysi ham to’rtlamchi davr yotqiziqlari bilan qoplangan [1;14-b] .

2. Tektonik tuzilishi

Tuman hududi faol tektonik zonada joylashgan. Bu yerda ikki yirik struktura to‘qnashadi:

Hisor antiklinal ko‘tarilmasi: Shimoldan janubga qarab bosib keluvchi tog‘ hosil bo‘lish jarayonlari.

Surxon sinklinal botig‘i: Tog‘lar orasidagi chuqurlik bo‘lib, u yerda million yillar davomida cho‘kindi jinslar to‘plangan.


Yoriqlar (Razlomlar): Tuman hududidan bir nechta yirik tektonik yoriqlar o‘tgan. Bu esa hududning seysmik faolligini (zilzilalar ehtimolini) oshiradi

Tumanning geomorfologik tuzilishi:Tumanning Jonchekka, Uzun, Telpakchinor,Kofirnihon hudulari yo’qori to’rtlamchi va hozirgi yoshdagi terrassa tekisliklar qayir va yosh akkumulyativ qayir osti terrassalar.

Bobotog’ hududi tog’ning sharqiy yonbag’irlari va g’arbiy yanbag’irlari g’arbiy yonbag’rining surxondaryoga tutashguncha bo’lgan qismlarida 500-1000 metr chuqurlikdagi parchalanishlar 100 –metrgacha chuqurlikdagi quyuq parchalanishi bilan to’rtlamchi yoshdagi burmali (Sinklinal ,Antiklinal,) platosimon past tog’ massivlari shuningdek 500-100 metr chuqurlikdagi quyuq parchalanish bilan to’rtlamchi yoshdagi burmali (sinklinal,antiklinal) platosimon massivlar tarqalgan Tog‘ tizmasi asosan paleogen va yura davri ohaktoshlari, gil, alevrolit, qumtoshlardan tarkib topgan. Sharqiy yon bag‘ri tik va ensiz, tog‘oldi tekisliklari Kofarnihon daryosi terrasalarida joylashgan.

G‘arbiy yon bag‘ri ancha yotiq va keng, asosiy qismi past tog‘lardan iborat. Bobotog‘ning yon bag‘irlari ko‘plab quruq soylar bilan parchalangan. [1;15-b] .

Uzun tumani kosmosurati



(1-rasm)

Bobotog’dan boshlanadigan ko’plab soylar sharqiy yonbag‘ridagi yirik soylar,O’tinsoy,Momiqsoy,Duxonasoy,Suvlisoy,Do’ltalisoy,Navobisoy,Oqmachitsoy va Qoplonsoy g’arbiy yonbag’ridagi Beshkapalisoy,Sarolqasoy,Arg’amchisoy va (h.k) eng yirik soylar bo’lib har bir o’z suv yig’ish havzasi va suvayirg’ichlariga ega va bu soylar bahor oylarida qisman qor va asosan yomg’ir suvlari hamda qisman buloq suvlaridan suv oladi va bahorda anchayin suvli bo’ladi lekin bu soylar yoz va kuzda butunlay qurib qoladi lekin bu soylardan qishloq xo’jaligida samarali foydalanish uchun vaqtinchalik oqar va sel suvlarini tutib qoladigan mini suv omborlar qurib bahorgi suvlarni tutib qolib yozda foydalanish imkoniyatlari mavjud bu borada

bobotog’ning sharqiy yonbag’ridagi soylar tog’ning yanbag’irlari tik bo’lganligi sababli ko’proq sel hodisasi yuz berib turadi va mini suv omborlar qurish va foydalanish noqulay lekin texnologiyalar yordamida bu muammolarni texnik jihatdan xal qilsa bo’ladi lekin g’arbiy yonbag’irlari yotiq va keng miqyosda surxondayo vohasi tomon pasayib borishi bu qismidagi soylarda mini suv omborlar qurish uchun juda qulay va mini suv omborlar suvidan yoz chillasida foydalanib bobotog’ning g’arbiy yonbag’irlaridagi minglab gektar maydonlarda tomchilatib sug’oradigan bog’lar barpo etish imkoniyati mavjud bunday loyihalar amalga oshirilsa tuman iqtisodiyoti balki viloyat iqtisodiyotiga sezilari tasir qiladi ammo bunaqangi loyihalarni amalga oshirish iqtisodiy jihatdan hozircha imkonsiz.


O‘simlik qoplami:Tuman turli xil o’simliklarga boy.

Uzun tumanining o‘simliklar qoplami hududning murakkab relyefi pasttekislikdan baland tog‘liq. Tuman o‘simlik dunyosi asosan Hisor tizmasining janubiy yonbag‘irlari va Bobotog‘ o‘simliklaridan tashkil topgan.

Tumanning sug’oriladigan qismlarida To‘polondaryo, Obizarang, Qoratog‘, Qorasuv, Surxon daryolarinining terrasalarida vohalarning madaniy o’simliklari adirliklarida efemer va efermoid chal cho’lga xos o’simliklar o’sadi tog’ oldi va past tog’ qismlarida ayniqsa bobotog’ning g’arbiy yonbag’irlarida bo’liq o’tlar va shuvoqli chala cho’lga oid o’simliklar o’sadi.

Bobotog’ning yo’qori qismlarida quruq dashtli turli o’tlar archali siyrak o’rmonlar o’sadi. Tog‘ning yuqori qismlarida archa, zarang, pista va bodom o`sadi boshqa tog`lardan bodom va pistazorlarning ko`pligi bilan farq qiladi. Bobotog‘ tizmasidagi pistazorlar nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo miqyosida genetik va ekologik jihatdan o‘ta noyob hisoblanadi.

UniScience
International scientific journal



(2-rasim)

1. Tabiiy va Genetik Noyoblik Bobotog‘ pistazorlari (Pistacia vera) madaniy pistalarning “vatan”i va genetik ajdodi hisoblanadi:

Tabiiy ekotizim: Bu yerda pistalar sun’iy ekilmagan, balki ming yillar davomida tabiiy holda shakllangan.

Bu ularning qurg‘oqchilikka, kasalliklarga va keskin iqlim o‘zgarishlariga chidamlilik genofondini saqlab qolganini anglatadi yani pista daraxti qattiq qurg’oqchilik yillari ham o’sishda meva berishda davom etaveradi yani bahorgi kam sonli yomg’rilar suvi pista daraxti uchun yetarli bo’ladi ildizlari juda chuqur ketadi .

Endemik turlar: Hududda pistadan tashqari, unga hamroh bo‘lgan ko‘plab noyob o‘simliklar ham o‘sadi, bu esa hududni o‘ziga xos landshaft xilma-xilligi markaziga aylantiradi.

2. Landshaftni Himoya Qilish Funksiyasi

Eroziyaga qarshi to‘siq: Pistalar o‘zining kuchli ildiz tizimi bilan Bobotog‘ning yumshoq lyossli (changsimon) tuproqlarini yuvilib ketishdan saqlaydi. Agar pistazorlar yo‘qolsa, hudud tezda chuqur jarliklar va cho‘lga aylanadi.

Mikroiqlim yaratuvchi: Bu landshaftlar issiq cho‘l havosini mo‘tadillashtirib, namlikni saqlashga xizmat qiladi.

3. Ijtimoiy-Iqtisodiy va Farmatsevtik Qiymati

Pistazorlar hudud aholisi uchun ham, sanoat uchun ham katta boylik:

Yuqori sifatli mahsulot: Tabiiy pistalar o‘zining yog‘liligi va foydali elementlari bilan madaniy navlardan ajralib turadi.

Farmatsevtika: Pista daraxtining turli qismlari (mevasi, smolasi va bargidan) tibbiyotda keng qo‘llaniladi.

4. Bobotog‘ pistazorlari va Antropogen Xavf

Hozirgi kunda ushbu noyob landshaftlar jiddiy xavf ostida:

Overgrazing (Haddan tashqari ko‘p chorva boqish): Chorva mollari yangi unib chiqayotgan yosh pista nihollarini yeb ketishi natijasida pistazorlarning tabiiy yangilanishi (qayta tiklanishi) to‘xtab qolgan shuningdek pista mevalarini turli hududlarga tashib ko’payishida muhim rol o’ynaydigan qushlarning ko’p yillar davomida betartib va ayovsiz ov qilinishi yanada achinarli ahvolga keltirmoqda. Noqonuniy kesish: O‘tin sifatida kesilishi landshaftning parchalanishiga (fragmentatsiya) olib kelmoqda

Bo‘z va jigarrang tog‘ tuproqlarida xilma-xil efemer, efemeroid o‘simliklar o‘sadi. 800-900 metr balandliklarda na’matak, zirk,Chiya,Olmurutva, bodom va pistazorlar uchraydi.

Undan baland joylarida (Beshyog’och, Zarkosa tog‘lari) archazorlar bor. Bobotog‘ – O‘zbekistonning yovvoyi tog‘ echkilari yashaydigan hududlaridan biri sanaladi.

Uzun tumanining murakkab relyefi va gidrologik tarmog‘i bu yerda turli tabiiy jarayonlarning faol kechishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, aholi sonining o‘sishi va xo‘jalik faoliyati bu jarayonlarni tezlashtiruvchi antropogen faktor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Quyida tumandagi asosiy tabiiy jarayonlar

1. Sel va suv toshqinlari

Uzun tumanining tog‘li hududlari (To‘polondaryo, Obizarang havzalari) sel xavfi yuqori bo‘lgan zonalar hisoblanadi.

Tabiiy sabab: Kuchli bahorgi yog‘ingarchilik va qorlarning tez erishi.

Antropogen ta’sir: Tog‘ yonbag‘irlarida chorvaning tartibsiz boqilishi natijasida o‘simlik qatlamining yo‘q qilinishi (degradatsiya). Bu tuproqning suvni shimish qobiliyatini pasaytirib, yer usti oqimini tezlashtiradi.

Natija: Sel oqimlari intensivligi ortadi va qishloq xo'jaligi yerlariga zarar yetadi.

2. Tuproq eroziyasi

Tuman relyefining adir va tog‘ oldi qismlarida eroziya jarayonlari juda faol.

Tabiiy sabab: Relyefning qiyaligi va lyossli (yumshoq) tuproqlar.

Antropogen ta’sir: Qiyaliklarda sug‘oriladigan dehqonchilikning noto‘g‘ri tashkil etilishi (agro-texnik qoidalarga rioya qilmaslik) va daraxtlarning kesilishi.

Natija: Unumdor tuproq qatlamining yuvilib ketishi va jarliklarning hosil bo'lishi.

3. Cho‘llanish va yaylovlar degradatsiyasi

Ayniqsa Bobotog‘ tizmasi va adirlarda kuzatiladi.

Bobotog’ning Kofirnihon vodiysida sug‘oriladigan dehqonchilik rivojlangan. Bobotog’da inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida eroziya, yaylov degressiyasi (yemirilishi) keng tarqalgan.

Alohida muhofaza qilinishi zarur bo‘lgan landshaft ko‘p.

Tabiiy sabab: Arid (quruq) iqlim va haroratning ko‘tarilishi.

Antropogen ta’sir: Haddan tashqari ko‘p chorva boqish Yaylovlarning o‘z-o‘zini tiklash imkoniyatidan ortiqcha foydalanish tabiiy o‘simlik turlarining yo‘qolishiga olib keladi.

Natija: Yaylovlar mahsuldorligining pasayishi va cho‘l landshaftlarining kengayishi.

4. Gidrologik rejimning o‘zgarishi

Tabiiy jarayon: Daryo oqimlarining mavsumiy tebranishi.

Antropogen ta’sir: To‘polon suv ombori va kanallarning qurilishi. Bu bir tomondan suvni boshqarish (irrigatsiya) uchun foydali bo‘lsa, ikkinchi tomondan daryo quyi oqimidagi tabiiy landshaftlarning (to‘qayzorlarning) qurishiga sabab bo‘ladi.

Tuman tabiiy geografik jihatdan o‘zining geografik o‘rniga ko‘ra Surxondaryo viloyatining eng shimoliy va shimoli-sharqiy qismida joylashgan bo‘lib, murakkab va xilma-xil tabiiy hududlar bilan chegaradosh.

Chegara uzunligi -373,9 km bo’lib tuman hududini uchta yirik geotizim sifatida qarash mumkin .

1.To‘polondaryo, Obizarang, Qoratog‘, Qorasuv, Surxon daryolarining terrassalarida joylashgan madaniy vohalashgan va ushbu terrasalarga tutash adirliklar o’ziga xos alohida geotizim bo’lsa

2.Tog’ oldi va Bobotog’ okrugi alohida o’ziga xos va murakkab landshaft hosil qilgan alohida geotizim

3.Kofirnihon vodiysi bo'lib vodiy o'ziga xos iqlimga egaligi iqlimining shakllanishida ham surxondaryo okrugining iqlim hosil qiluvchi va qo'shni Tojikistonning xatlon viloyatida shakllanadigan iqlim tasiri ostida iqlimi shakllangan bundan tashqari bu yerda kofirnihon daryosi terrasalari vaqtinchalik oqar suvlar va kuchli sel hodisalari tasirida hosil bo'lgan prolyuvial yotqiziqlar ostida qolib ketgan va nishablik vodiyni o'rab turgan tog'lar Bobotog' va Toshbuloqtog' lardan daryo tomon yo'qori nishablikda bo'lgani uchun daryo chuqurlatma eroziya yani o'zanini tag qismini sezilarli ravishda yemirishda davom etmoqda shuningdek vodiyning yarmi Tojikiston hududida joylashgan bu yerda vodiyning daryoga yaqin qismida har ikkala qirg'og'ida sug'orma dehqonchilik rivojlangan va sug'orma dehqonchilik hududlari bevosita adirlar bilan tutashib ketgan alohida geotizimdir.

Tuman iqlimi biroz murakkabroq bo'lib tekislik qismi va bobotog'ning g'arbiy yonbag'irlari surxondayo okrugi iqlimi bilan bir xil shakllansa kofirnihon vodiysi iqlimi anchayin farq qiladi tumaning gidrografiyasi o'ziga xos murakkab tekisik qismi suvga boy bo'lsa adirlik va tog' oldi mintaqalarida suv taqchildir

Tumanda sug'oriladigan madaniy voha tuproqlari ham balandlik mintaqalanishi bo'yicha tarkib topadigan tuproqlar ham tarqalgan.

Tumanning fauna va florasi o'ziga xos bo'lib ayniqsa bu borada tog' oldi hududlari va bobotog' okrugi alohida ahamiyatga ega va bu okrug o'zining noyob flora va faunasi bilan respublikada ham o'z o'rniga ega .

Tumanda sel, surilma ,eroziya o'rmonlar va yaylovlarning qisqarishi, tuproq degradatsiyasi,yerlarning sho'rlanishi,daryolarning qirg'oq yuvilishi dorivor o'simliklar va hayvonot olamining yo'qolish havfi kabi tabiiy jarayonlar keng tarqalgan bo'lib va bu jarayonlarni antropogen omillar yanada tezlashtirmoqda

Tumaning tabiiy geografik o’rnini geologik tuzilishini, relyefi, iqlimi, suv resurslari, o’simlik va hayvonot olamini , tabiiy jarayonlarning tarqalishini o’rganishda dala tadqiqot metodlarining o’rni alohida bo’ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.Surxondaryo viloyati o’lkashunoslik atlasi, O’zbekiston Respublikasi yer resurslari ,Geodeziya ,Kartografiya va davlat kadastri davlat qo’mitasi ,Toshkent 2016.

2.Mingaliyev R.O. (maqola) "Экономика и социум" №11(113)-1 2023 www.iupr.ru

3. Rafiqov A.A. Geoekologik muammolar. –T.: O‘qituvchi, 1997. -112 b.

4. Rafiqov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya. Toshkent, 2014, -101 b.

5. Ro‘ziyev A.N. Surxon-Sherobod vodiysida qishloq xo‘jaligini joylashtirish va rivojlantirish masalalari.

6. Тўраев Б. Ҳозирги замон табиатшунослиги концепциялари. –T.:Tafakkur, 2009. -250 b.

8. Baratov P., o'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent,. « o'qituvchi», 1996

7. Uzun tumani “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi” fond materiallari (2019-2021 yillar).

8. Uzun tumani “ Yer resurslari va davlat kadastr bo‘limi” hisoboti (2021y.).

9. 2025-yil 22-sentabr VII-10-76-8-118-K/25 Uzun tumani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari haqidagi PF-81-sonli farmonining ijrosi yuzasidan tumanning 2030-yilgacha mo‘ljallangan ekologik «master-reja»sini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori.

Internet saytlari

9. uz.wikipedia.org

10. LEX.UZ

11.https://cyberleninka.ru/article/n/uzun-tumanida-suv-resurslaridan-oqilona-foydalanish

12. https://gov.uz/oz/eco

UniScience
International scientific journal